


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
MADANIYAT VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI

BOTIR ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN'ATI INSTITUTI



KOMPOZITORLIK SAN'ATI

FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 200 000 - San'at va gumanitar fanlar

Ta'lif sohasi: 210 000 - San'at

Ta'lif yo'nalishi: 60210900 - Bastakorlik san'ati

Fan/modul kodi KS1817	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1-8	ECTS-Kreditlar 17
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lif tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 2
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)
	Kompozitorlik san'ati	240	270
<b>I. Fanning mazmuni</b>			
<p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga cholg'ular haqida mukammal bilimlarni o'rgatishdan iborat. Bu fan o'quv rejalariga muvofiq belgilangan semestrlarda yakka mashg'ulot tarzida o'tiladi va keyingi semestrlarda o'rganiladigan – "Partitura o'qish", "Cholg'ushunoslik", "Cholg'ulashtirish" kurslarini yanada chuqurroq, mukammal o'zlashtirib olishlariga katta yordam beradi.</p> <p>Fanning vazifasi – nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, musiqa va undagi jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.</p>			
<p style="text-align: center;"><b>II. Asosiy qism</b>  <b>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</b>  <b>Kirish</b></p> <p><b>1-mavzu. Kirish. Melodik va garmonik mashqlar</b></p> <p>Musiqada melodiya va garmoniya tushunchasi. Sodda mavzularning g'oyaviy-estetik ifodasi. Fortepiano uchun sodda shakllarda mavzu yozishning o'ziga xos xususiyatlari. Tugallangan asar misolida – fortepiano uchun Prelyudiylar, fortepiano jo'rligida turli cholg'ular uchun kuylar, ayrim cholg'ularga yakka kuylar (estrada-jazz yunalishidagi melodiya namunasi sifatida).</p> <p><b>2-mavzu. Fortepiano uchun 2 ta prelyudiya yaratish. Asarning ijrosini tayyorlash. (<i>ikkinci prelyudiya Estrada jazz yo'nalishida</i>)</b></p> <p>Musiqada sodda shakl tushunchasi. Davriya, o'rta qism, repriza. Sodda shakllarning g'oyaviy-estetik ifodasi. Fortepiano uchun sodda shakllarda asar yozishning o'ziga xos xususiyatlari. Tugallangan asar misolida – fortepiano uchun Prelyudiylar, fortepiano jo'rligida turli cholg'ular uchun kuylar, ayrim cholg'ularga yakka kuylar (estrada-jazz yunalishidagi melodiya namunasi sifatida).</p> <p><b>3-mavzu. Yakka cholg'u uchun solo yaratish. Melodiya. Oddiy shaklning ekspozitsion qismini yaratish. Oddiy shaklning o'rta qismini yozish. Oddiy shaklning reprizasini yozish. Asarning ijrosini tayyorlash.</b></p> <p>Yakka cholg'u uchun solo yaratish ustida ishlash. Asar shakli ustida ishlash. Tanlangan cholg'uning ijo imkoniyatlarini o'rganish.</p>			

**4--mavzu. Damli cholg'u va fortepiano uchun pyesa yaratish. Melodiya, faktura, garmoniya, ritm.**

Saksafon, klarnet, truba, trombon cholg'u va fortepiano uchun pyesa yaratish ustida ishlash. Asar shakli ustida ishlash.

**5 --mavzu. Oddiy shaklning ekspozitsion qismini yozish. Oddiy shaklning o'rta qismini yozish. Oddiy shaklning reprizasini yozish. Asarning ijrosini tayyorlash.**

Davriya, oddiy va murakkab 2 qismli, 3 qismli shakllar. O'rta bo'lak yoki qismlarda kontrast uslubini albatta inobatga olish alohida e'tiborda bo'lmog'i kerak. Tanlangan cholg'uning ijro imkoniyatlarini o'rganish.

**Oraliq nazorat**

Uslublar xilma-xilligi: Klassik musiqa yoki zamonaviy janrlargacha bo'lgan turli uslublarga moslashish qobiliyati. Berilgan tonal yoki ritmik tuzilmani ishlatib, real vaqt rejimida musiqiy material yaratish qobiliyati.

**6-mavzu. Ovoz va fortepiano uchun estrada qo'shiq yaratish. Musiqa va she'riy matn mutanosibligida melodiya yozish. Faktura, gamoniya, ritm.**

Estrada qo'shiq janrining o'ziga xos xususiyatlari. Estrada qo'shiq janrining estrada ansamblar va estrada orkestrkar bilan bog'liqligi. Estrada qo'shiq yozishda ovozning imkoniyatlarini tushunish, ovozlarning turini bilsish, ijro ko'nikmalarini anglash muhim hisoblanadi. Vokal ovoz hamda cholg'u partiyasi orasidagi o'zar munosabat bo'lishi shart.

**7-mavzu. Estrada instrumental pyesaning oddiy shaklning ekspozitsion qismini yozish. Oddiy shaklning o'rta qismini yozish. Oddiy shaklning reprizasini yozish. Asarning ijrosini tayyorlash.**

Davriya, oddiy va murakkab 2 qismli, 3 qismli shakllar. O'rta bo'lak yoki qismlarda kontrast uslubini albatta inobatga olish alohida e'tiborda bo'lmog'i kerak. Tanlangan cholg'uning ijro imkoniyatlarini o'rganish. CUBASE, NUENDO, LOGIC va ProTools dasturlari orqali ijrosini taylorlash.

**8-mavzu. Turli estrada cholg'ular va fortepiano uchun o'zbek xalq va o'zbek professional musiqa asosida pyesa yaratish. Melodiya, faktura, garmoniya, ritm. Oddiy shaklning ekspozitsion qismini yozish.**

Estrada cholg'usi va fortepiano uchun pyesa yaratish ustida ishlash. Asar shakli ustida ishlash. Davriya, oddiy va murakkab 2 qismli, 3 qismli shakllar. O'rta bo'lak yoki qismlarda kontrast uslubini albatta inobatga olish alohida e'tiborda bo'lmog'i kerak. Tanlangan cholg'uning ijro imkoniyatlarini o'rganish.

**9-mavzu. Oddiy shaklning o'rta qismini yozish. Oddiy shaklning reprizasini yozish.**

Davriya, oddiy va murakkab 2 qismli, 3 qismli shakllar. O'rta bo'lak yoki qismida kontrast uslubini albatta inobatga olish alohida e'tiborda bo'lmog'i kerak. Tanlangan cholg'uming ijro imkoniyatlarini o'rganish.

#### **Yakuniy nazorat**

O'z kompozitsiyasini taqdim etish: O'z ishini ijro etish (shaxsiy yoki ijrochilar yordamida) va o'z ijodiy qarorlarini tushuntirish imkoniyati. Kompozitsiyani muhokama qilish: Musiqiy vositalar, uslub va shakl tanlovini asoslash, komissiya savollariga javob berish qobiliyatni.

#### **10-11mavzu. Sonata shakli. Sonata, fortepiano uchun. Ekspozitsiya 1-qism**

Sonata shakli bilan dastlabki tanishtirish ishlari. Sonata turkumida asar yozish ko'nikmasini egallash.

Sonataning 1-qismini ekspozitsiyani yaratish. Ekspozitsiyada kontrastga asoslangan bosh va yondosh partiyalarni ustida ishlash.

#### **12-mavzu. Sonata, fortepiano uchun. Rivojlov.**

Sonata shaklining rivojlov qismi. Rivojlovg'a oid bayon turi. Rivojlovnning o'ziga xos xususiyatlari. Rivojlanish printsiplari.

#### **13-mavzu. Sonata, fortepiano uchun. Repriza.**

Sonata shaklining repriza qismi. Reprizaga oid bayon turi. Reprizaning o'ziga xos xususiyatlari. Reprizada partiyalarning asosiy tonallikka bo'ysunishi.

#### **Oraliq nazorat**

Talaba belgilangan mavzu, uslub yoki janr asosida original kompozitsiya yozishi kerak. Ko'pincha ma'lum shakllardan foydalanish nazarda tutiladi (sonata shakli, rondo, variatsiyalar va h.k.).

#### **14-mavzu. Sonata, fortepiano uchun. 2-qism.**

Sonata turkumining ikkinchi qismini yozish. Sonata turkumining ikkinchi qismiga xos xususiyatlari. Lirik xarakterning mavjud bo'lishi. Birinchi qismdan keyingi dramaturgik rivojlanish printsiplari.

#### **15-mavzu. Sonata, fortepiano uchun. 3-qism**

Sonata turkumining uchinchi qismini yozish. Sonata turkumining uchinchi chismiga xos xususiyatlari. Finalga xos obrazli xarakterning mavjud bo'lishi.

#### **16-mavzu. Estrada-jazz trio ansambl uchun asarlar yaratish**

Asosiy vazifa estrada ansambl uchun asarlar yozish ko'nikmasini hosil qilish. Bunday asarlarni yaratishda turli shakllarini mukammal o'rganib ansambl cholg'u tembrlari, emotSIONAL tovush xarakteridan kelib chiqib mavzuiarni o'zaro kontrast nuqtai nazaridan hamohang yangrashiga erishishga e'tiborni qaratish kerak.

**17-mavzu. Estrada-jazz kvartet ansambl uchun asarlar yaratish (urma-zarbli moslama, bass-gitara, gitara, fortepiano)**

Bunday asarlarni yaratishda kvartetning turli cholg'u tembrlari, emotsiyonal tovush xarakteridan kelib chiqib estrada-jazz uslubidagi mavzuiarni o'zaro kontrast nuqtai nazaridan hamohang yangrashiga erishishga e'tiborni qaratish kerak.

**18-mavzu. Estrada-jazz kvartet ansambl uchun asarlar yaratish (urma-zarbli moslama, bass-gitara, fortepiano va yakkaxon cholg'u – saksafon, klarnet, truba, trombon)**

Bunday asarlarni yaratishda kvartetning turli cholg'u tembrlari, emotsiyonal tovush xarakteridan kelib chiqib estrada-jazz uslubidagi mavzuiarni o'zaro kontrast nuqtai nazaridan hamohang yangrashiga erishishga e'tiborni qaratish kerak.

**19-mavzu. Estrada-jazz kvintet ansambl uchun asarlar yaratish (urma-zarbli moslama, bass-gitara, gitara, fortepiano va yakkaxon cholg'u – saksafon, klarnet, truba, trombon)**

Bunday asarlarni yaratishda kvintetning turli cholg'u tembrlari, emotsiyonal tovush xarakteridan kelib chiqib estrada-jazz uslubidagi mavzuiarni o'zaro kontrast nuqtai nazaridan hamohang yangrashiga erishishga e'tiborni qaratish kerak.

**20-mavzu. mavzu. Estrada-jazz sekstet ansambl uchun asarlar yaratish (urma-zarbli moslama, bass-gitara, gitara, fortepiano va ikkita yakkaxon cholg'u – saksafon, klarnet, truba, trombon)**

Bunday asarlarni yaratishda kvintetning turli cholg'u tembrlari, emotsiyonal tovush xarakteridan kelib chiqib estrada-jazz uslubidagi mavzuiarni o'zaro kontrast nuqtai nazaridan hamohang yangrashiga erishishga e'tiborni qaratish kerak.

**Yakuniy nazorat**

O'z kompozitsiyasini taqdim etish: O'z ishini ijro etish (shaxsiy yoki ijrochilar yordamida) va o'z ijodiy qarorlarini tushuntirish imkoniyati. Kompozitsiyani muhokama qilish: Musiqiy vositalar, uslub va shakl tanlovini asoslash, komissiya savollariga javob berish qobiliyati.

**21-mavzu. Kino musiqasi asoslari.**

Badiiy obraz xaqida tushuncha. Kadr va musiqa nisbati. Taylor videolar uchun (30 soniyadan 2 daqiqagacha) video ketma-ketlikning badiiy tasviri uchun kompozitsiya yaratish. CUBASE, NUENDO, LOGIC, ProTools kompyuter dasturlaridan foydalanish.

**22-mavzu. INTRO.**

Ochilish sarlavxalari uchun 1-2 daqiqa davom etadigan musiqiy kompozitsiya yaratish.

**23-mavzu. CODA.**

Yakuniy sarlavxalari uchun 1-2 daqiqa davom etadigan musiqiy kompozitsiya

yaratish.

**24-mavzu. Asosiy nutq (leytmotiv) ustida ishlash.**

Badiy tasvirlar bilan tanishish. Lirik-dramatik janrdagi berilgan film uchun asosiy nutq (leytmotiv) yaratish.

**25-mavzu. Asosiy leytmotiv ustida ishlash.**

Badiy tasvirlar bilan tanishish. ACTION janrdagi berilgan film uchun asosiy leytmotiv yaratish.

**Oraliq nazorat**

Berilgan sahna yoki film lavhasi asosida musiqa yozish: Talaba berilgan sahna yoki film lavhasi uchun original soundtrack yaratishi kerak. Ushbu vazifa o'inchilarning hissiyotlari, atmosfera va hikoyaning mazmuniga mos keladigan musiqa yaratishni o'z ichiga oladi. Musiqiy tema yaratish. Motivlarning rivoji. Asosiy motivni filmning turli qismlarida rivojlantirish va takrorlash.

**26-mavzu. Asosiy leytmotiv ustida ishlash.**

Badiy tasvirlar bilan tanishish. Komik janrdagi berilgan film uchun asosiy leytmotiv yaratish.

**27-mavzu. Qisqa metrajli film ustida ishlash.**

Syujet va badiy obrazlar bilan tanishish va tahlil qilish. Qisqa metrajli film uchun musiqa yaratish, badiy aniqlash, leytmotivlarni yaratish. Partituranı yozish.

**28-mavzu. Qisqa metrajli film ustida ishlash.**

Qisqa metrajli film uchun musiqa yaratish, filmning to'liq uzunligi uchun musiqiy syujet yaratish.

**29-mavzu. Musiqiy-elektron kompozitsiya ustida ishlash.**

O'rta qismda kontrastli epizod bilan 3-qismli musiqiy-elektron kompozitsiyani yaratish (ekspozitsiya).

**30-mavzu. Bitiruv malakaviy ishning ikkinchi qismiga tayorgarlik.** Musiqiy-elektron kompozitsiya ustida ishlash. O'rta qismda kontrastli epizod bilan 3-qismli shakldagi musiqiy-elektron kompozitsiyani yaratish (kontrast, epizod, repriza).

**Yakuniy nazorat**

Talaba o'z soundtrackini ijro etishi yoki uni film lavhasi bilan birga taqdim etishi kerak, shuningdek, o'z ijodiy qarorlarini tushuntirishi lozim. Film uchun to'liq musiqiy kompozitsiya yaratish: Talaba qisqa metrajli film yoki reklama roligi uchun to'liq musiqiy kompozitsiya yaratishi kerak.

**31-mavzu. Bitiruv malakaviy (diplom) ishning birinchi qismiga tayorgarlik.** Diplom ishi konsepsiyasini ishlab chiqish. (uvertyura, poema, fantaziya parafraz yoki popuri)

**32-mavzu. Ekspozitsiya ustida ishlash.**

Musiqiy mavzu ustida ishlash. Ekspozitsiya tematizmining metro-ritmik hususiyatlarini aniqlash. Tematizmning garmonik asosi va fakturani tuzilishi.

**33-mavzu. Bitiruv malakaviy (diplom) ishning o'rta qismi ustida ishlash.**

O'rta qismini yozish. Partiyalarining tafovutiga e'tibor qaratish. O'rta qismining printsiplaridan foydalanish.

**34-mavzu. Bitiruv malakaviy (diplom) ishning yakuniy qismi ustida ishlash.**

Yakuniy qismini yozish. Partiyalarining tafovutiga e'tibor qaratish. Yakuniy qismiga tegishli printsiplaridan foydalanish.

**35-mavzu. Bitiruv malakaviy (diplom) ishning yakuniy qismi ustida ishlash.**

Asarning yakuniy qismi ichida avj (kulminatsiya) nuqtasini aniqlash.

**Oraliq nazorat**

Turli cholg'ular tarkibi uchun musiqa yaratish qobiliyati (solist cholg'u, ansambl, orkestr, xor). Uslublar xilma-xilligi: Klassik musiqa yoki zamonaviy janrlargacha bo'lgan turli uslublarga moslashish qobiliyati. Musiqiy materialni turli cholg'ular tarkibi uchun qayta ishlash, uslubiy yaxlitlik va musiqiy ifodalilikni saqlab qolish qobiliyati.

**36-mavzu. Bitiruv malakaviy (diplom) ishning ekspozitsiyani orkestrni ustida ishlash.**

Asarning cholg'ulashtirilishi ustida ishlash. Cholg'u partiyalarining birlashuvi yoki bo'linishlariga e'tiborni qaratish. Partiturada shartli belgilarni to'g'ri qo'yish.

**37-mavzu. Bitiruv malakaviy (diplom) ishning o'rta qismni orkestrlash va uning ustida ishlash.**

Cholg'u partiyalarining birlashuvi yoki bo'linishlariga e'tiborni qaratish. Partiturada shartli belgilarni to'g'ri qo'yish.

**38-mavzu. Bitiruv malakaviy (diplom) ishning yakuniy qismni orkestrlash va uning ustida ishlash.**

Cholg'u partiyalarining birlashuvi yoki bo'linishlariga e'tiborni qaratish. Partiturada shartli belgilarni to'g'ri qo'yish.

**39-mavzu. Bitiruv malakaviy (diplom) ishning yakuniy qismni orkestrlash va uning ustida ishlash.**

Asarning yakuniy qismi doyrasidagi kulminatsiyani orkestrlash va uning ustida ishlash.

#### **40-mavzu. Bitiruv malakaviy (diplom) ishning final bosqichi.**

Asarning taxrirlash (shtrihlarni tartibga solish, dinamika, shakl va orkestr bo'yicha yakuniy ish).

#### **Yakuniy nazorat**

O'z kompozitsiyasini taqdim etish: O'z ishini ijro etish (shaxsiy yoki ijrochilar yordamida) va Davlat Attestasiyaga taqdim etish. Musiqiy vositalar, uslub va shakl tanlovini asoslash, komissiya savollariga javob berish qobiliyatni.

#### **III. Mustaqil ta'lימי tashkil etishning shakl va mazmuni**

Mustaqil tahlimni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha mahruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishslash;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqr o'rganish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (ishbilar o'yinlar, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.).

Mustaqil ta'limi tashkil etishning mazmuni axborot-tahlim resurslaridan, tahlim muassasasida mavjud kutubxonha, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, reyectoriylardan, o'quv laboratoriyalari, ovoz yozuvu studiyalari, teleradiokom'aniya kanallari va kontsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahvilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlanТИш va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

1. Melodik va garmonik mashqlar ustida ishslash
2. Fortepiano uchun 2 ta Prelyudiya ustida ishslash
3. Yakka cholg'u uchun solo ustida ishslash
4. Oddiy shaklning o'rta qismini yozish
5. Oddiy shaklning reprizasini yozish
6. Damli cholg'u va fortepiano uchun pъesa yaratish.
7. Ovoz va fortepiano uchun romans yaratish. Musiqa va she'riy matn mutanosibligida melodiya yozish
8. Xalq cholg'u va fortepiano uchun pъesa yaratish
9. Fortepiano uchun sonata yozish
10. Sonata, fortepiano uchun. 2-qism
11. Sonata, fortepiano uchun. 3-qism

	<p>12. Sonata shakli ustida ishlash      13. Sonata shakliga oid asarlarni tinglash va tahlil qilish      14. Orkestr uchun asar ustida ishlash      15. Torli kvartet ustida ishlash      16. Kamer-vokal asar ustida ishlash.      17. Estrada qo'shiqlari ustida ishlash.      18. Jo'rsiz xor uchun asar yaratish.      19. Yirik janarda simfonik asar yozish      20. Yirik janarda simfonik asar ustida ishlash      21. Yirik janarda simfonik asarlarni tinglash va tahlil qilish</p>
3.	<p><b>V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><b>Talaba bilishi kerak:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- musiqiy kompozitsiya kursining predmeti – musiqa yaratish;</li> <li>- musiqiy kompozitsiya asoslari, qarama-qarshiliklar, yangilik, mutanosiblik, usullarga solish, garmoniyalashtirish yaxlitligi;</li> <li>- musiqiy asarlarni yaratish jarayonlari;</li> <li>- musiqiy-nazariy tizimlar to'g'risida, notografiya, xor va orkestr yozuvi <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi</i>;</li> <li>- orkestr va ansamblar tarkibiga kiritilgan cholg'ular uchun yaratilgan sara asarlarni;</li> <li>- kuylovlchi ovozlar, ularning tessitura, diapazoni, harakatchanligi va ifodaviyligini;</li> <li>- ijrochilar, rejissyorlar, musiqiy chiqishlarni sahnalashtiruvchilar va rassomlar bilan ishlash asoslарини;</li> <li>- "oltin kesishma" deb nomlanuvchi qonuniyatlarни;</li> <li>- ixtisoslikka mos san'at turining asosiy ilmiy-ijodiy muammolari va rivojlanishining hamda ularning turdosh sohalar bilan o'zaro aloqasini <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>;</li> <li>- oddiy shakkarda ijodiy ish; fortepiano uchun prelyudiylar, fortepiano jo'rligidagi torli cholg'ular uchun kichik kuylar yozish;</li> <li>- she'riy matn bilan ishlash, qo'shiq, romans va xorlar uchun vokal asarlari yozish;</li> <li>- sonata shaklida, torli kvartet, orkestr uchun asarlari (uvertyuralar, musiqiy lahzalar) yaratish;</li> <li>- yirik janrdagi cholg'u, vokal-xor va simfonik asarlari (poema, kontsert, simfoniya va boshqalar) ustida ishlash <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>.</li> </ul>
4.	<p><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Yakka mashg'ulotlar</li> <li>- Interfaol aqliy hujum</li> <li>- Visual akustik va shahsiy oriyentasiy tehnologiyasi</li> <li>- Kollokvium</li> <li>- Ijodiy asar ijrosi</li> </ul>
5.	<p><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid ijodkorlik, pedagogik va musiqiy jamoatchilik faoliyatiga nazariy va amaliy tayyorgarlik, keng va turli dasturlarni bilish, nazariy malakalarini o'zlashtirish, mustaqil ravishda partitura ustida ishlash, mustaqil ravishda asar mavzusini yaratishning amaliy tajribasiga ega bo'lishi, mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish. Oraliq va yakuniy nazoratlar fanning xususiyatidan kelib chiqqan xolda 2 marotaba (kollokvium, asar ijrosi) yaratgan asarlarini tinglovi orqali o'tkazilishi mumkin.</p>
6.	<p><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Месснер Е. Основы композиции. М., 2001.</li> <li>2. Назайкинский Е.В. Логика музыкальной композиции. М., «Музыка», 1982.</li> <li>3. Евлахов О. Проблемы воспитания композитора. Ленинград, 1963</li> <li>4. Янов-Яновская Н. Узбекская симфоническая музыка. Т., 1980</li> <li>5. Чулаки М. Инструменты симфонического оркестра. М., 1982.</li> <li>6. Abdullayeva O. Bastakorlik san'ati. Darslik. T., 2018.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirziyoyev Sh.M. Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. PF-26.05. 2020</li> <li>2. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida. PQ-4038 28 noyabr 2018</li> <li>3. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruza. 2016- yil 7-dekabr. T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017.-32 b.</li> <li>4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2014.–46 b.</li> <li>5. Turli mualliflar. Jahan va o'zbek kompozitorlarining turli janrlardagi yuzlab asarlari klavirlari, partituralari. 1956-2011.</li> <li>6. O.Abdullaeva. "O'zbek kompozitorlik ijodiyotida estrada qo'shig'i yaratilishining amaliy masalalari", maqola. "Barkamol avlod shakllanishida san'atning ahamiyati" Yilnomasida, Toshkent, 2010.</li> </ol> <p><b>Axborot manbalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. <a href="http://www.youtube.com">http://www.youtube.com</a></li> </ol>

	<p>2. <a href="http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musiqqa">http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musiqqa</a>      3. <a href="http://www.musika.uz">www.musika.uz</a>      4. <a href="http://portasound.ru/music-search/musiqqa-olami">http://portasound.ru/music-search/musiqqa-olami</a>      5. <a href="http://www.gov.uz">www.gov.uz</a> – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.      6. <a href="http://www.lex.uz">www.lex.uz</a> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.</p>
7.	<p>Fan dasturi Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2024 yil «<u>300</u>  <u>taqribiyligi</u>» dagi <u>1</u>-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p>
8.	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b>  <b>X.Nazarov</b> - O'zDK huzuridagi B. Zokirov nomidagi MESI "Kompozitorlik va aranjirovka" kafedrasи dotsenti, kafedra mudiri  <b>I.Pinhasov</b> - O'zDK huzuridagi B. Zokirov nomidagi MESI "Kompozitorlik va aranjirovka" kafedrasи katta o'qituvchisi</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b>  <b>Mansurov A.M.</b> - O'zDK, "Kompozitorlik va cholg'ulashtirish" kafedrasи professori</p>